



ADABIYOT DARSALARIDA O'QUVCHILARNING BADIY ASARLARGA TAHLILIY- QIYOSIY, TANQIDIY MUNOSABAT BILDIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Urazmetova Shoxida Ilxomboyevna

*Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 25-son umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola o`quvchilarni badiiy adabiyotlarga qiziqtirishning turli metodlarini tahlil etishga, o`quvchilar bilan adabiyot darslarida olib boriladigan pedagogik faoliyatlarni muhokama etishga hamda bugungi kunda kitobxonlikni targ`ib etishning dolzarbligini asoslashga bag`ishlanadi.

Kalit so‘zlar: Badiiy adabiyot, metod, faoliyat, ta`lim, texnologiya, samaradorlik.

KIRISH

Ta’lim-tarbiya jarayonining har bosqichida o‘quvchilarda insoniy tuyg‘ularni shakllashtirish va takomillashtirish, estetik taraqqiyotini oqilona boshqarish nafaqaularning badiiy asarlarni o‘zlashtirish xususiyatlarini bilishni, balki har bir o‘quvchining bu boradagi individual anglash, tafakkur yuritish, his qilish, hukm-xulosa chiqarish xususiyatlarini hisobga olishni ham talab qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Millat tarbiyasi hamma zamonlarda ham yeng dolzarb masala bo‘lib kelgan. Sharq mutafakkirlari farzand tarbiyasiga alohida ye’tibor berib kelganlar. “Kalila va Dimna” nomi bilan mashhur bo‘lgan hindlarning “Panshatatra” (Besh hikmat), “To‘tinoma” shuhrat qozongan “Shukasaptati” (To‘tining yetmish hikoyasi), YusufXos Xojibning “Qutatg‘u bilig” (Baxt saodatga yo‘llovshi bilim), MuslihiddinSa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Nosiriddin Rag‘buziyning “Qissasi Rag‘buziy”, Alisher Navoiyning “Maxbub ul qulub” (Ko‘ngillarning sevgani), “Hayrat ul-abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi),



Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi o‘nlab durdona asarlari ko‘p asrlar davomida farzandlar tarbiyasida dasturulamal vazifani o‘tab kelmoqda²².

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Inson kamolotini ta’minlashda adabiyotning o‘rnini boshqa biror-birmadaniy-ma’rifiy majmua bosa olmaydi. Adabiyot, jumladan, badiiy adabiyot aniq tabiiy til vositasida bayon etilgan, aniq hajmga (janr ko‘rinishiga) ega bo‘lgan matnni⁵ qamrab olib, ma’lum mazmunni ifodalashi, aniq g‘oyani shakllantirishi, me’yorlarning ko‘rsatilganligi va hayotning biror sohasiga taalluqliligi jihatidan dunyoviy, diniy, ilmiy va amaliy kabilarga ajratiladi.

Adabiyot yaxlit ijtimoiy-madaniy majmua sifatida maishiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-madaniy, siyosiy-madaniy, huquqiy-madaniy, tibbiy-madaniy kabi g‘oyalarni mujassam etib, qaysi tilda yaratilgan bo‘lsa, o‘sha til sohiblarining kechinmalari, intilishlari, xotiralari, hayot tarzini aks ettiradi. Shu tariqa, adabiyot milliy qadriyatlarni shakllantirib (takomilini ta’minlab), uni umuminsoniy qadriyatlar darajasigacha chiqarishga funksional ta’sir ko‘rsatadi, milliy madaniyatni targ‘ib etib, dunyo manzarasining badiiy tasvirini takomillashtiradi. Bu o‘z navbatida adabiyotning **ma’naviy** va **polimorfizm** tizimlarini shakllantirishidan dalolat beradi. Ya’ni, adabiyot **ma’naviy** va **polimorfizm** tizimlarini yaratib, jamiyat ijtimoiy va madaniy tizimining amal qilishi uchun, tizimosti tarzida ishtirok etadi. Bu esa adabiyotni milliy- ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash vositasida sifatida ham idrok etishni taqozo qiladi. Negaki, har qanday g‘oya adabiyot vositasida, qahramonlar siyoshi, hissiy kechinmalari ta’siri asosida yoki yordamida moddiylashadi²³.

Masalaga ilmiy-an’anaviylik nuqtai nazari bilan qaralganda, ta’kidlash lozimki, adabiyot, aniq makon va tarixiy davr ijodiy tafkkurining hosilasi sifatida, o‘sha davrning badiiy manzarasini, mavjudruhiy-ma’naviy hayotini aks ettirish bilan birga, uning istiqboldagi rivojlanish yo‘llarini belgilash uchun rag‘bat berishi lozim. Adabiyot tarixidan ma’lumki, juda ko‘p badiiy syujetlar ilmiy tadqiqotning ishchi farazi sifatida tanlanib, tajribalar asosida ifodalab berilgan. Mazkur ijtimoiy-psixologik xususiyat ijodkorning

²² Yo‘ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta’lim mакtablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan. doktori diss... - T.: 2017. - 306 b.

²³ Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dok. diss... - T.: 2015. - 253 b.



(shoir, yozuvchi, dramatrug, ssenarist, rejissyor, bastakor va b.) shaxsi, mikrodunyosi, mahorati va prognozqilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, bunda ijodkor tizimli idrok va tafakkursohibi sifatida quyidagi mavzularni tasvirlab berish iqtidorining ishtirok etishini alohida ko‘rsatib o‘tishi lozim:

- insonning yaqinlariga, jonzotlarga va buyumlarga, tabiatga nisbatan zo‘ravonligini;
- hayotdan zavq olish tarzi, nafrat hissini namoyon etmaslik sabablarini;
- o‘zlikni saqlash, oliy hissiyotni namoyon etish, hamda aniq xulqstrategiyasiga ega bo‘lishni;
- “inson – inson”, “inson – maishiy – madaniy muhit”, “inson – millatva boshqa millat vakillari”, “inson – fan- texnika”, “inson – oila”, “inson
- inson qadriyat ekanligini, uni anglash uchun muayyan fazilatlarga egabo‘lish lozimligini va boshqalar.

O‘quvchilarni badiiy adabiyotlar bilan oshno qilishda bir qator samarali metodlarni qo‘llash mumkin. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta’minlashdir. O‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o‘zлari xulosa qila olsa, ko‘zlangan maqsad amalga oshadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o‘qitish jarayonining asosi sanaladi. Har bir dars, mavzu, o‘quv fanining o‘ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma’lum va keng qo‘llanadigan usullardan “Aqliy hujum”, “Klaster”, “VENN diogrammasi”, “BBB”, “FSMU” kabilar dars jarayonida o‘zlarining samarali natijalarini ko‘rsatib kelmoqda. “Qiyoslash metodi”, “Davra metodi”, “6x6x6” kabi metodlarning dars samaradorligini ta’minlashda o‘ziga xos o‘rni bor. Xususan, “Qiyoslash metodi”dan badiiy asarlardagi o‘xshash jihatlar, farqli jihatlarni tahlil etish orqali samarali foydalanish mumkin.

Noan’anaviy darsning asosiy yo‘nalishlari:²⁴

²⁴ Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.



- a) o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o‘rgatish;
- b) o‘quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- d) o‘quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to‘g‘risida aniq tushuncha hosil qilish;
- e) olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash va boshqalarga o‘rgatish va hokazo.

Noan’anaviy darslarni esa interaktive metodlar va o’yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o’zagini tashkil etadi. Misol uchun, murakkab mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzak», «Interfaol», «O’yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars», «FSMU», «Baliq skeleti», «Charxpalak» kabilarning o‘quv jarayonida qo‘llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda qo‘llanadigan interaktiv usullar o‘quvchilarda o‘z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko‘tarish, mantiqiy aniq va to‘liq nutq sohibi bo‘lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi²⁵.

XULOSA VA MUNOZARA

Shundan kelib shiqadiki, yosh avlod bizning kelajagimiz, ularga berilgan to‘g‘ri tarbiya yuksak milliy axloq va ye’tiqod kelajagimiz xayrli bo‘lishini, millatimiz obro‘sini va nufuzini saqlab qolishimizni va uni yanada yuqori sho‘qqilarga ko‘tarishimizni ta’minlaydi. Bu ishda bizga yeng yaxshi qo‘llanma qanday janr va yo‘nalishda bo‘lmashin o‘zida axloqiy g‘oyalar, ibratlari jumlalarni aks yettirgan adabiyotlar bo‘lib qoladi. Radio va televideniya, teatr, kino san’ati, musiqa va tasviriy san’at bu ishda bizga ko‘mak beradi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. 2017 yilning 19 sentabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi.
2. Yo‘ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan. doktori diss... -T.: 2017. - 306 b.
3. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dok. diss... - T.: 2015. - 253 b.

²⁵ Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o‘rganishda innovatsion metodlar. Science and Education, 1(5).



4. O‘zbekiston Davlat Milliy Universiteti “Ma’naviy salohiyati” Tosh.2009-yil.
5. J.To‘lanov “Qadryatlar falsafasi” Tosh.O‘zbekiston nash.1998-yil.
6. Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o’rganishda innovatsion metodlar. Science and Education, 1(5).
7. G‘ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari – T.: 2019 54-b
8. Samarov R. Axborotning psixologik xavfsizligini ta’minlash mexanizmi // Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 2015.

